



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Baxodir Doniyev

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

## DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI VA DAVLAT TALABALARINI AMALGA JORIY QILISH

(Professiogramma, psixogramma va trudogramma ijrosi haqida)

**Annotasiya.** Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi muassasalaridagi ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifalari, ta'lim oluvchilarga o'quv fanlari bo'yicha o'rgatiladigan bilim ko'nikma va malakalarining o'rtacha hajmi, miqdori (eng yuqori va eng kam miqdorining, hajmining o'rtachasi) davlat ta'lim standartlarida belgilanadi. DTSlar ta'lim-tarbiya tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** Professiogramma, Trudogrammalar, Professiogramma

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi muassasalaridagi ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifalari, ta'lim oluvchilarga o'quv fanlari bo'yicha o'rgatiladigan bilim ko'nikma va malakalarining o'rtacha hajmi, miqdori (eng yuqori va eng kam miqdorining, hajmining o'rtachasi) davlat ta'lim standartlarida belgilanadi. DTSlar ta'lim-tarbiya tizimining maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, qo'shimcha ta'lim muassasalari maxsus maktab-internatlar, san'at va sport, musiqa maktablari, barkamol avlod bolalar markazlari, BABM, o'smirlar va bolalar ijodiy uylari, oliy ta'lidan keyingi ta'lim bosqichlarida (mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilik, ilmiy xodimlik va tadqiqotchilikda, doktoranturalarda va boshqalar) davlat talablariga DTlarga rioya qilinadi.

Ta'lim yo'nalishi (sohalari) DTslari quyidagi qismlardan tuziladi: O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standarti, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti 5111000 – Kasb ta'limi (5151200 – Amaliy san'at ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar.

Mazkur standart O'zbekiston hududida amalga kiritilishi (amal qilishning to'xtatilishi) va unga o'zgartirishlar kiritilishi to'g'risidagi ma'lumotlar "O'z standart" agentligi tomonidan nashr etiluvchi ko'rsatkichlarda chop etiladi. Mazkur standart O'zbekiston Respublikasi hududida chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVga tegishlidir. Ya'ni amal qilish muddati 20\_\_ dan 20\_\_ gacha deb ko'rsatiladi:

1. Qo'llanilish sohalari. 1.1. Oliy ta'limning mazkur davlat ta'lim standarti (OTDTS) 5111000 – kasb ta'limi (5151200-amaliy san'at ta'lim yo'nalishi) bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashda asosiy ta'lim dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun majburiy talablar dasturini ifodalaydi.

Oliy ta'lim DTSning asosiy foydalanuvchilari ... oliy ta'lim muassasalarining professor – o'qituvchilari, ... barcha xodimlar va talabalar, boshqaruva xodimlari (rektorat, prorektorlar, o'quv va boshqa bo'limlar, dekanlar, kafedralar) davlat attestatsiyasi va imtihon komissiyalari, moliyalashtiruvchi va nazorat qiluvchi vakolatli organlar, abiturientlar; atamalar, ta'riflar, qisqartmalar keltiriladi.

Ta'lim yo'nalishining tavsifi, mazkur ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining kasbiy faoliyati tavsifi: Bakalavrlarning kasbiy faoliyati sohalari quyidagilarni qamrab oladi: obyektlari, turlari, vazifalari, tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar, umumiylar malakaviy kompetentsiyalar (amaliy faoliyatga moslik. Umum kasbiy kompetentsiyalar (egallanib bo'lgan ko'nikma va malakalarning kasblariga, shaxsiy va kasbiy fazilatlarining

faoliyatiga egallagan ixtisosligiga mos kelishi. Ishlab chiqarish, texnologik faoliyati, tashkiliy boshqarish faoliyati, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi tizimida faoliyat, ta'lim dasturlari bo'yicha BKMLariga qo'yiladigan talablar, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, matematika va tabiiy - ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, amaliyotlar, kasbiy ixtisoslik fanlari, BMIga va boshqa mustaqil ishlarga qo'yiladigan talablar, maxsus ixtisoslik fanlari, bakalavrlar tayyorlash sifatini baholash kabilar keltiriladi. Ta'lim yo'nalishi DTSga asosan, o'quv rejalar (tayanch, namunaviy, ishchi) o'quv dasturlari (tayanch, namunaviy, ishchi) va boshqa didaktik, metodik ta'minot namunalari ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

Shuningdek, ta'lim DTSlariga mos ravishda Oliy va O'MKHTning kasb-hunarlar tasniflagichi (klassifikatori) asosida turli xil kasb-hunarlar standartlari, professiogrammalari, psixogrammalari, trudogrammalari ham ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Kasb – hunarlar tarmoq ta'limi standartlarini kelgusida (TTSlar) ishlab chiqishda va amaliyotga joriy etishda Oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish markazi va O'rta maxsus kasb – hunar ta'limini pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining metodist olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari muhim o'rinn tutadi. Ularning mehnati tufayli Oliy va o'rta maxsus kasb – hunar ta'limi tasniflagichlarida ko'zda tutilgan 2500 dan ziyod kasb – hunarlarning tarmoq ta'limi standartlari (TTSlari) yaratilgan.

**Kasb – hunarlar tarmoq ta'limi standartlarida** (TTS) ham umumiylama'lumotlardan so'ng, kasb – hunar egalariga zarur bo'ladigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, xislatlar va fazilatlar, mehnat faoliyati turlari batafsil ko'rsatiladi. Shuningdek, bo'lg'usi kasb – hunarlar egalariga ushbu bilim, ko'nikma, malakalarni egallah manbalari (o'quv yurtlari) ham ko'rsatib o'tiladi. TTSlari oliy va kasb hunar ta'limida ko'proq qo'llaniladi.

**Professiogrammada** (*lot. Professio* – kasb-hunar, faoliyat; *grafos* – chizaman, ta'riflayman degan ma'noni anglatadi) kasb – hunarlar va ixtisosliklar egalarining faoliyat ko'rsatish sohalari, ob'ektlari, ularga lavozim va xizmat vazifalarini bajarishda zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalari, xislat va fazilatlar, jamioatchilik faoliyti

ta’riflanadi. Shuningdek, professiogrammada kasb-hunar egalarining mehnat ob’yeqtleri, vositalari to‘g‘risada ham qisman aytib o‘tiladi.

**Psixogrammada** (lotincha psixe-ruh, jon) kasb – hunar kishilarining ruhiy, jismoniy, aqliy xususiyatlari to‘g‘risida, faoliyatlariga mos kelishlari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Masalan, shakllanayotgan shaxslarning psixologik xususiyatlari, nutqi, sezgisi, nafas olishi, qon aylanish, ovoz va eshitish apparatlari, idroki, ko‘rish, qobilyatlarining kasb – hunarlariga qo‘yadigan talablari ta’riflanadi. Tuyg‘u, sezgi, xarakter, mijoz, temperament, qobilyat, xotira, xayol, tafakkur va boshqalarning shakllanishi, rivojlanishining egallaydigan kasb – hunarlariga, xizmat lavozimlari vazifalariga mos tushishiga (tushmasligiga) aytildi.

**Trudogrammalar** (ruscha trud-mehnat) kasb-hunar egallashning mehnat sharoitlari, mehnat qurollari, vositalari, mehnat meyorlari (oddiy, kundizgi, kechki navbatlarda, xotinqizlar, bolalar mehnati meyorlari, odatdagi va odatdan tashqari sharoitlarda mehnat meyorlarining belgilanishi kabilar va boshqalar) ularning mehnatiga haq to‘lash, razryadlar, toifalar ko‘rsatkichlari, ifodalanadigan me’yoriy hujjatlardir.

Har bir kasb-hunarlarni tariflashda yoki ularni egallash yo‘llarini ko‘rsatishda albatta DTSlarga, kasb-hunarlar tasniflagichlaridagi kodli ko‘rsatkichlariga, professiogramma, psixogrammalarga, trudogrammalarga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimidagi ta’lim-muassasalarida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘lg‘usi kasb-hunar kishilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda yoki ixtisosliklar va mutaxassisliklar bo‘yicha yosh kadrlarni ishlab chiqarish, xalq xo‘jaligi, madaniyat, maorif, san’at, tibbiyot va boshqa sohalarda unumli mehnat faoliyatiga tayyorlashda albatta, yuqoridagi me’yoriy metodik o‘quv hujjatlaridagi talablarning o‘quv rejalarini bilan o‘zaro uyg‘unlashtirilishiga erishish lozim bo‘ladi. Aksincha, ko‘pchilik hollarda, hatto, nisbatan katta ish tajribasiga ega bo‘lgan metodist-mutaxassislar ham yuqoridagi hujjatlardagi talablarni hisobga olish u yoqda tursin, ushbu hujjatlarning bir-biridan farqlarini, o‘xshashliklarini, ahamiyatini, maqsad vazifalarini to‘g‘ri tushunmaydilar va bajara olmaydilar.